

**XALQARO-HUQUQIY STANDARTLAR VA O'ZBEKISTON
KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLARIDA NOGIRONLIGI BO'LGAN
SHAXSLARNING HUQUQLARI**

Ravshan Xakimov,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Davlat va huquq instituti katta ilmiy xodimi

e-mail: ravshan-khakimov1961@mail.ru

Sardor Djalilov,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Davlat va huquq instituti doktoranti

e-mail: bozorovsardor9807@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari tushunchasi, mazun-mohiyati, ularning xalqaro va milliy qonunchilikda yoritib berilganligi hamda ta'minlash mexanizmlari, shuningdek hozirgi kunda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini qay darajada amalda himoya qilinayotganligini ko'rsatib beruvchi asoslar keltirilgan. Shu bilan birga, aynan nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash orqali inson huquqlarini rivojlantirib borish mexanizmlarining qonuniy asoslari ko'rsatib o'tilgan. Maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning o'ziga xos jihatlari haqidagi fikrlar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: nogironligi bo'lgan shaxs, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, jismoniy, aqliy, ruhiy yoki hissiy nogironligi bo'lgan shaxslar, ijtimoiy himoya, tibbiy-ijtimoiy xizmatlar.

ПРАВА ИНВАЛИДОВ В МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫХ НОРМАХ И КОНСТИТУЦИОННЫХ РЕФОРМ УЗБЕКИСТАНА

Равшан Хакимов,

Старший научный сотрудник

Института государства и права

Академии наук Республики Узбекистан

Сардор Джалилов,

докторант

Института государства и права

Академии наук Республики Узбекистан

e-mail: bozorovsardor9807@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены понятие, сущность прав лиц с инвалидностью, их охват в международном и национальном законодательстве, механизмы их обеспечения, а также основания, которые показывают, насколько в настоящее время защищены права лиц с инвалидностью на практике. При этом показана правовая основа механизмов развития прав человека путем обеспечения прав лиц с инвалидностью. В статье представлены взгляды на особенности обеспечения прав, свобод и законных интересов лиц с инвалидностью.

Ключевые слова: лица с ограниченными возможностями, права лиц с ограниченными возможностями, лица с физическими, умственными, умственными или эмоциональными отклонениями, социальная защита, медицинские и социальные услуги.

**RIGHTS OF PERSONS WITH DISABILITIES IN INTERNATIONAL
LEGAL STANDARDS AND CONSTITUTIONAL REFORMS OF
UZBEKISTAN**

Ravshan Khakimov,
Senior researcher of the
State and Law Institute of the
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
e-mail: ravshan-khakimov1961@mail.ru

Sardor Djalilov,
PhD student of the Institute of State and Law of the
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
e-mail: bozorovsardor9807@gmail.com

ABSTRACT

This article presents the concept, essence of the rights of persons with disabilities, their coverage in international and national legislation, as well as the mechanisms for ensuring them, as well as the grounds that show the extent to which the rights of persons with disabilities are currently protected in practice. At the same time, the legal basis of the mechanisms for the development of human rights by ensuring the rights of persons with disabilities has been shown. The article presents the views on the specific aspects of ensuring the rights, freedoms and legal interests of persons with disabilities.

Key words: persons with disabilities, rights of persons with disabilities, persons with physical, mental, mental or emotional disabilities, social protection, medical and social services.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Hozirgi zomonda nogironligi bo'lgan shaxslarning hayoti to‘g‘risida insoniyat nimaga ega? Savol qiyin, ammo shu bilan birga, turmush darajasi boy yoki kambag‘al bo‘lishidan qat’i nazar, barcha mamlakatlar uchun juda dolzarbdir.

Noaniqlik zamonaviy yuridik fanlarda ham mavjud bo‘lib, u yerda “nogiron” tushunchasining umumiy qabul qilingan ta’rifi hali mavjud emas, bu borada xalqaro tashkilotlar (BMT, XMT, JSST va boshqa) va olimlarning nuqtai nazari xilma-xil va g‘ayrioddiy, xuddi shu narsa xalqaro va milliy huquq normalariga ham tegishli. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, nogironligi bo‘lgan shaxslarning muammolari nafaqat har bir davlat va umuman insoniyat uchun, balki xalqaro huquq hamda milliy huquqda ham ahamiyatga ega. Ya’ni, so‘nggi o‘n-yillikning ilmiy izlanishlar va qabul qilingan xalqaro-huquqiy hujjatlari ma’lum bir birlikka moyilligini ko‘rsatadi, ammo shu bilan birga BMTning “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”[1]gi Konvensiyasi (bundan buyon matnda “Konvensiya”deb yuritiladi) *i) qismida* Preambula “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning xilma – xilligini” tan oladi deb ko‘rsatilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining (bundan - buyon matnda BMT deb yuritiladi) Bosh Assambleyasi “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiya” [2] 1- bandida nogironligi bo‘lgan shaxs deb tan olish to‘g‘risida “...tug‘ma yoki yo‘qligi sababli yohud uning jismoniy yoki aqliy qobiliyatları normal shaxsiy va/yoki ijtimoiy hayot ehtiyojlarini mustaqil ravishda to‘liq yoki qisman ta’minlay olmaydigan har qanday shaxs” deb ko‘rsatilgan.

Xalqaro mehnat tashkilotining 159-sonli Konvensiyasi 1–moddasida “nogironligi bo‘lgan shaxs” tushunchasini “...to‘g‘ri ish topish, saqlab qolish va lavozimga ko‘tarilish imkoniyati, jismoniy yoki ruhiy nuqson tufayli sezilarli darajada cheklangan shaxs”[3] deb ta’riflaydi.

Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti (bundan buyon matnda JSST deb yuritiladi) 2001-yil 22-mayda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta’minalash maqsadida Jahon sog‘lijni saqlash Assambleyasida, nogironlikning ijtimoiy jihatlarini hisobga oladigan, ammo nogironlikni faqat “tibbiy” deb hisoblamaydigan “faoliyat, hayot faoliyati va sog‘lijni saqlashni cheklashning xalqaro tasnifi”ning yangi tahririni tasdiqladi. JSST ikkita asosiy tushunchani aniqlaydi, buzilish: aqliy, fiziologik yoki tana tuzilishi yoki funksiyalarining har qanday yo‘qolishi yoki

g‘ayritabiyy ishlashi, masalan, falaj yoki ko‘rlik. Nogironlik faoliyatni shu tarzda yoki inson uchun normal deb hisoblangan doirada amalga oshirish qobiliyatining har qanday cheklanishi yoki yo‘qligi (buzilish bilan bog‘liq)[4].

Konvensiyaning *e)* paragrafida aytilishicha, “nogironlik rivojlanayotgan tushunchadir” va “sog‘lig‘i buzilgan odamlar va munosabat va atrof-muhit to‘siqlari o‘rtasida yuzaga keladigan va ularning boshqalar bilan bir qatorda jamiyatda to‘liq va samarali ishtirok etishiga to‘sinqilik qiladigan o‘zaro ta’sir natijasidir”. Bundan tashqari, 1-moddaning 2-qismi nogironligi bo‘lgan shaxslarga tegishli va unda “...turli xil to‘siqlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lganda, ularning boshqalar bilan bir qatorda jamiyatda to‘liq va samarali ishtirok etishiga xalaqit beradigan jismoniy, aqliy, intellektual yoki hissiy nogironligi bo‘lgan shaxslar”[5] deyilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISSCUSSION)

O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasida “...doimiy jismoniy, aqliy, hissiy (hissiy) yoki ruhiy nogironligi bo‘lgan, ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj bo‘lgan, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan bir qatorda to‘liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratiladigan shaxslar”[6] deb ko‘rsatilgan.

Zamonaviy dunyoda JSST hisob-kitoblariga ko‘ra, bir milliarddan ortiq odam, ya’ni dunyo aholisining taxminan 15 foizi ma’lum bir nogironlik shakliga ega va atigi 5 foizida ushbu nogironlik shakllari tug‘ma hisoblanadi[7]. Birlashgan Millatlar Tashkilotining taraqqiyot dasturi (BMT TD) ma’lumotlariga ko‘ra, nogironligi bo‘lgan shaxslarning 80 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi[8]. Jahon bankining fikricha, dunyodagi eng kambag‘al odamlarning 20 foizi nogironlardir[9].

Nogironligi bo‘lgan shaxslar dunyodagi eng katta ozchilik hisoblanadi, ammo boshqa ozchilik guruhlaridan farqli o‘laroq, bu guruh har doim ochiq a’zolikka ega: har birimiz baxtsiz hodisa, kasallik yoki qarish natijasida istalgan vaqtda ushbu guruhga a’zo bo‘lishimiz mumkin.

Shunday qilib, nogironlik inson hayotining bir qismidir. Aksariyat hollarda nogironlik ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy omillar, baxtsiz hodisa yoki qurolli

to‘qnashuvlar natijasidir. Hozirgi kunda sog‘liqning buzilishiga olib keladigan ko‘plab omillar mavjud, xususan, ifloslanish, OIV/OITS va giyohvandlik. Nogironlik ham rivojlanish masalasidir, chunki u qashshoqlik bilan ikki baravar bog‘liq: nogironlik qashshoqlik xavfini oshirishi mumkin, qashshoqlik esa nogironlik xavfini oshirishi mumkin. Nogironlikning 50% gacha oldini olish mumkin va ular qashshoqlik bilan bevosita bog‘liqdir.

Hozirgi zamon nogironligi bo‘lgan shaxslar muammolarini e’tiborga olgan holda BMT Bosh Assambleyasining 2015-yilda qabul qilingan Yakuniy hujjati 17 ta global maqsad va 169 ta tegishli vazifadan iborat. BMTning dunyomizni o‘zgartirish: 2030-yilgacha “Barqaror rivojlanish kun tartibi” nomli yakuniy hujjatida 2015-yilda BMTning Azanna muammosining o‘ziga xosligini hisobga olgan holda, nogironligi bo‘lgan shaxslarga ularning hayotiy faoliyati uchun dunyo hamjamiyatining jiddiy niyatlari to‘g‘risida bevosita taalluqli 7 ta maqsad kiritilgan.

Shunday qilib, biz nogironligi bo‘lgan shaxslar muammosi zamonaviy xalqaro huquqning umume’tirof etilgan me’yorlari va tamoyillariga muvofiq har bir davlatdan qabul qilingan xalqaro majburiyatlarni bajarishni talab qiladigan katta ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammo ekanligini ko‘ramiz.

O‘zbekiston ham bundan mustasno emas, bu yerda 36 million aholidan, 780 mingdan ortig‘i nogiron kishilardan iborat. Ulardan I guruh nogironlari 8,5 %, II guruh nogironlari 71% va III guruh nogironlari 20,5% ni tashkil qiladi. Nogironligi bo‘lgan shaxslar orasida 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar 97000 kishini tashkil qiladi.

2017-yildan beri respublikada, yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga moddiy yordam ko‘rsatish, shuningdek, “Mehribonlik”, “Muruvvat” va “Saxovat” uylari xayriya yordami ko‘rsatishning umumiy tizimi mavjud.

2018-yildan boshlab davlat va mustaqil ommaviy axborot vositalari yangiliklar, teleko‘rsatuvalar va videofilmlarni subtitrlar yoki surdotarjimon bilan kuzatib borishni tashkil etishlari, gazeta va jurnallar tahririylatlari esa maxsus o‘tkir shriftda chop etilgan alohida versiyasini chiqarishi shart qilib qo‘yildi.

2018-yil 1-martdan boshlab nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilmagan shahar yo'lovchi transport vositalarini sotib olish taqiqlandi. Bundan tashqari, tegishli idoralarga nogironligi bo'lgan shaxslarni yengil avtomobilarni haydashga o'rgatish, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslarni maxsus boshqaruv vositalari (qo'lida debriyaj, yoqilg'i ta'minoti va boshqalar) bilan boshqarish uchun moslashtirilgan avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil etish tavsiya etildi.

2018-yil 1-iyundan boshlab nogironligi bo'lgan shaxslarning yagona elektron reyestri joriy etildi, unda ular to'g'risidagi kompleks ma'lumotlar, belgilangan miqdorlar va naqd to'lovlar turlari, rehabilitatsiya texnik vositalari, protez-ortopedik mahsulotlar va dori vositalari, ko'rsatilgan ijtimoiy xizmatlar va imtiyozlar berilgan. Yangi formatdagi reyestr, shuningdek, ushbu sohadagi ishlarning holati to'g'risida tezkor ma'lumot olish, davlat organlari o'rtaida ma'lumot almashish, budget mablag'larining noto'g'ri sarflanishi va suiiste'mol qilish holatlarining oldini olish imkonini beradi.

2018-yilda nogironligi bo'lgan va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylarni taqdim etish, dastlabki to'lovni davlat tomonidan moliyalashtirish va imtiyozli shartlarda ipoteka krediti berish tartibi joriy etildi. Shu yilda Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etildi.

2018/2019 o'quv-yilidan boshlab abituriyentlarni oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishning yangi tartibi amal qilmoqda. Unga muvofiq Oliy ta'lim muassasalariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiyligi soniga nisbatan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qo'shimcha ikki foizli davlat granti kvotalarining (keyingi o'rnlarda qo'shimcha kvota deb ataladi) oliy ta'lim muassasalari kesimidagi taqsimoti tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan shakllantirilib, har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish to'g'risidagi tegishli qarori qabul qilinganidan so'ng ikki hafta muddatda Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish

jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha davlat komissiyasiga (keyingi o‘rinlarda Davlat komissiyasi deb ataladi) taqdim etiladi.

2021-yilda O‘zbekiston Respublikasi tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi va Nogironligi bo‘lgan shaxslar ishlari bo‘yicha idoralararo kengash tashkil etildi.

O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarning ishlari holatini qonunchilik darajasida yaxshilash maqsadida “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun va “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni asosida Konvensiya ratifikatsiya[10] qilindi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning so‘rovlariga javoblar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda aks ettirildi.

2022-yildan boshlab, respublikada nogironligi bo‘lgan 500 nafargacha bo‘lgan yoshlarga kasbga o‘qitish va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha miqdorda har yili subsidiyalar ajratish tizimi joriy etildi.

Hozirgi vaqtida respublikaning 300 ta mакtabida nogiron bolalarni o‘qitish uchun mo‘ljallangan inklyuziv ta’limni rivojlantirish dasturlari joriy etildi. Shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari bo‘yicha maxsus kurslar o‘qitilmoqda, shu bilan birga ilmiy tadqiqotlar ham olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 1992-yilgi Konstitutsiyasida ilgari “nogironligi bo‘lgan shaxs” atamasi ishlatilmagan. 2023-yil 30-apreldagi referendumga tayyorgarlik jarayonida O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasiga 57, 70 va 115-moddalariga birinchi marta “nogironligi bo‘lgan shaxs” atamasi kiritildi.

Xususan, 57-moddaning birinchi qismida “mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir”, uchinchi qismida “davlat

nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar ob'ektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta'lim olishiga ko'maklashadi, ularga zarur bo'lgan axborotni to'sqiniksiz olish imkoniyatini ta'minlaydi" deb belgilanganligini alohida ta'kidlash joiz.

Bundan tashqari, 70-moddada "O'zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmali jamoat birlashmali sifatida e'tirof etiladi" deb ko'rsatilgan.

Shuningdek, 115-moddasining 3-bandida "aholini, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi" deb O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolati kengaytirilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONSLUSION)

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yangilanayotgan konstitutsiyaning nogironligi bo'lgan shaxslar masalalari bo'yicha asosiy xususiyatlarini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

birinchidan, ilk marotaba davlatimizning asosiy qonunida nogironligi bo'lgan shaxs atamasi ko'rsatilgan - konstitutsiyaning qonun oldida tenglik prinsipi doriasida barcha, xattoki nogironligi bo'lgan shaxslar boshqa shaxslar qatorida teng ekanligini ko'rsatadi;

ikkinchidan yangilanayotgan konstitutsiyada ko'rsatilayotgan moddalar (57,75 va 115)dagi o'zgarishlar to'liq xalqaro standartlarga javob beradi - mazkur o'zgarishlar xalqaro-huquqiy umume'tirof etilgan va O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan hujjatlar asosida ishlab chiqilgan;

uchinchidan, belgilangan moddalar asosida nogironligi bo'lgan shaxslarni ko'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirishga qaratilgan va buning uchun xizmat qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENSES)**

- 1.** BMT BA Res.№61/106, 13.12.2006-y. (O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan 07.06.2021-y).
- 2.** BMT BA Res.№3447 (XXX), 09.12.1975-y.
- 3.** Nogironligi bo‘lgan shaxslarni professional reabilitatsiya va ish bilan band qilish haqidagi Konvensiya, 20.06.1985-y.
- 4.** www.un.org/esa/socdev/enable/dis50y10.htm
- 5.** BMT BA Res.№61/106, 13.12.2006-y. (O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan 07.06.2021-y).
- 6.** O‘zbekiston Respublikasi qonuni “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”, kuchga kirgan sanasi 16.01.2021-y.
- 7.** www.who.int/mediacentre/factsheets/fs352/en/index.html
- 8.** www.un.org/disabilities/documents/reports/e-cn5-2008-6.doc
- 9.** www.who.int/disabilities/world_report/2011/report/en
- 10.** BMT BA Res. №61/106, 13.12.2006-y. (O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan 07.06.2021-y).